

ZAMONAVIY BUXTALTERIYA DASTURLARINING TAHLILLI, ULARNING KICHIK VA O'RTA BIZNESLARGA TA'SIRI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15549225>

Mallaxanov Javohir Qahramon o'g'li

Guliston davlat universiteti

Raqamli iqtisodiyot va inovatsiyalar fakulteti

2-bosqich talabasi

mallaxanovj@gmail.com +998935047514

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy buxgalteriya dasturlarining tahlili va ularning kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlariga ta'siri o'rganilgan. Buxgalteriya tizimining avtomatlashtirilishi biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, buxgalteriya dasturlarining qulaylik darajasi, narxi va mahalliylashtirilganlik kabi omillar asosida tahlil qilindi. Xorijiy dasturlar (1C, QuickBooks, Zoho Books, SAP Business One) bilan bir qatorda, mahalliy ishlab chiqilgan dasturlar (BuxSoft, Milliy Hisobot) ham solishtirildi. Tahlillar natijasida, KOB subyektlari uchun qulaylik, moslashuvchanlik va tejamkorlik mezonlari bo'yicha mahalliy dasturlar ustunlik qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar

QuickBooks, Zoho Books, FIFO(first in first out), LIFO(last in first out), me'yoriy hujjatlarga, buxgalteriya dasturlari, dasturiy ta'minot, axborot texnologiyalar.

Kirish:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday biznes subyektining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun moliyaviy axborotning aniqligi, tezligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtada buxgalteriya hisobi tizimi asosiy rolni bajaradi. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi – xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyaviy jihatdan to'liq va aniq aks ettirish, soliq va nazorat organlari uchun zarur hisobotlarni shakllantirish, va eng muhimi, rahbariyat uchun muhim boshqaruva qarorlarini qabul qilishda asos bo'luvchi ma'lumotlarni taqdim etishdir.

An'anaviy (qo'lda yoki Excelda yuritiladigan) buxgalteriya tizimlari hozirgi tezkor raqamli iqtisodiyot talablariga javob bermaydi. Ular ko'p vaqt talab qiladi, insoniy xatolik ehtimoli yuqori, hamda real vaqt rejimida axborot olish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan buxgalteriya dasturlariga ehtiyoj keskin oshdi.

Zamonaviy buxgalteriya dasturlari (masalan, 1C, QuickBooks, Zoho Books, SAP va boshqalar) kichik va o'rta biznes subyektlariga moliyaviy axborotni avtomatlashtirilgan holda yuritish, real vaqt rejimida tahlil qilish, soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, va eng asosiysi – xatoliklar ehtimolini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda raqamli buxgalteriya dasturlari nafaqat katta korporatsiyalar, balki kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlari uchun ham zaruratga aylanmoqda. Chunki buxgalteriya hisobi faqat qonunchilik talablarini bajarish emas, balki samarali boshqaruv vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Aynan shuning uchun buxgalteriya dasturlarining amaliy ahamiyatini o'rganish, ularning kichik va o'rta bizneslarga ta'sirini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy buxgalteriya dasturlari bugungi kunda biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va soliq hisobotlarini soddalashtirishda muhim vositaga aylangan. Quyida mahalliy va xorijiy bozorlarning eng ommabop buxgalteriya dasturlari qiyosiy tahlil qilinadi.

1. Xorijiy dasturlar:

1C: Buxgalteriya-Rossiyada ishlab chiqilgan bu dastur MDH davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham keng tarqalgan. Dasturning afzalligi – soliq qonunchiligidagi moslashganligi, o'rganish uchun qo'llanmalar ko'pligi, lekin interfeysi murakkab bo'lishi mumkin. Yillik narxi o'rtacha \$300 atrofida.

QuickBooks-AQShda ishlab chiqilgan QuickBooks asosan ingliz tilida faoliyat yurituvchi kichik bizneslar uchun qulay. Bu dastur foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega, bulutli xizmat ko'rsatadi va real vaqt rejimida moliyaviy ma'lumotlar tahlilini taqdim etadi. Narxi o'rtacha \$360/yil.

Zoho Books-Hindistonda ishlab chiqilgan Zoho Books dasturi ko'p funksiyali, bulutda ishlaydi, soliq hisobotlarini avtomatik yuritadi. Bu dastur O'zbekiston sharoitida ham moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Narxi taxminan \$240/yil bo'lib, kichik bizneslar uchun eng tejamkor variantlardan biridir.


SAP Business One-Yirik korxonalar uchun mo'ljallangan SAP tizimining KOB versiyasi – SAP Business One – murakkab modullarga ega va kuchli tahliliy vositalarni o'z ichiga oladi. Biroq narxi ancha yuqori: \$1000 dan ortiq bo'lishi mumkin, hamda sozlash ishlari ko'p vaqt va resurs talab qiladi.

2. Mahalliy dasturlar:

BuxSoft-O'zbekistonlik dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan BuxSoft dasturi o'zbek tilida ishlab chiqilgan, soliq hisobotlari O'zbekiston qonunchiligidagi to'liq mos. Yillik narxi atigi \$200 bo'lib, bu uni kichik bizneslar uchun qulay variantga aylantiradi. Dastur shuningdek, doimiy texnik ko'mak bilan ta'minlangan.

Milliy Hisobot-Yana bir mahalliy yechim bo'lib, ko'plab kichik biznes egalari tomonidan foydalaniladi. Bu dastur ham to'liq o'zbek tilida, foydalanuvchilarga sodda interfeys va moslashtirilgan funksiyalarni taqdim etadi. Narxi \$180/yil atrofida.

Buxgalteriya dasturining bozor qiymati haqida gap ketganda, so'nggi hisobotlar turli xil, ammo yaqin prognozlarni ko'rsatadi. Misol uchun, Digital Journal onlayn buxgalteriya dasturiy ta'minot bozori hisoboti (2022) bozor uchun 11.05% CAGRNI ko'rsatadi va 6,056.28 tomonidan \$2027 millionga etadi. Shu bilan birga, ReportLinker ning Global biznes buxgalteriya dasturiy ta'minot bozor buxgalteriya dasturi statistika 2022- 2026 hisobot biznes buxgalteriya dasturiy ta'minot sanoati tomonidan o'sadi, deb ohib \$2.33 milliard, bir CAGR da 7.14% tomonidan 2026.




- Agar kompaniya xalqaro mijozlar bilan ishlasa va ingliz tilida faoliyat yuritsa – *QuickBooks* yoki *Zoho Books* eng maqbul tanlov bo'ladi.
- Mahalliy bizneslar uchun esa – *BuxSoft* va *Milliy Hisobot* narx, til va qonunchilikka moslik bo'yicha eng qulay echim hisoblanadi.
- 1C dasturi esa o'zining barqarorligi va keng imkoniyatlari bilan hali ham ko'pchilikda ishonch uyg'otadi.

Zamonaviy buxgalteriya dasturlari so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanib, kichik va o'rta bizneslar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu dasturlar moliyaviy va boshqaruv hisobi, hisobotlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Dasturiy ta'minot bozori hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda: 2021 yilda

13,94 milliard dollar bo'lgan buxgalteriya dasturiy ta'minot bozori 2026 yilga kelib 24,13 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. *NetSuite ERP, Xero, Tipalti:* Xalqaro bozorda keng qo'llaniladigan bulutli va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari. Hisob-faktura, inventarizatsiya, ish haqi, global to'lovlar va soliq qonunchiligiga muvofiqlik kabi funksiyalarni taklif etadi.

1C: Buxgalteriya 8,0 amaliy dastur paketi imkoniyatlari:



ulami IFNSga chop etish yoki faylda saqlash mumkin. Xisobot tuzishni boshlash 1C:Buxgalteriya 8.0 da ishni boshlash uchun korxona haqidagi ma'lumot va korxonaning siyosiy taraflarini bilishning o'zi kifoya. Bunda dastur barcha dalillar orqali ish boshlashga moslashadi 1C:

Buxgalteriya 8.0 asosiy afzalliklari: Soliq va


buxgalteriya hisobini nazarda tutmagan holda ma'lumotlarni 1S:Buxgalterii 8.0ga qisman kiritish orqali tovarmoddiy zaxiralarini o'rtacha tannarxni aniqlab FIFO(first in first out) va LIFO (last in first out) usullarida hisoblaydi.

NetSuite ERP (me'yoriy hujjalarga muvofiqlik, avtomatlashtirish, bulutga kirish), Xero (Hisob-faktura, inventarizatsiyani boshqarish, ish haqini boshqarish), Tipalti (Hisob fakturalarni avtomatlashtirilgan qayta ishslash, global to'lovlar, soliq qonunchilagini boshqarish) va hakozalar. Bu kabi dasturiy ta'minotlar buxgalteriya hisobini yuritishda ko'plab qulayliklarga egalik qilish va shu bilan kelajakdagi tendentsiyalarini belgilab beradi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki. axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan sun'iy intellektning buxgalteriya hisobiga ta'siri, uning tez va xatosiz ishlashi va buning natijasida buxgalterlar ishining osonlashivi ayтиб о'tilmoqda.

Vic.ai - bu kreditorlik qarzlari jarayonlarini inqilob qiladigan, sun'iy

1C:Buxgalteriya 8,0 da barcha ma'lumotlar, bank hisoblari, ruyxat kodlari va korxona ishchilarining (pasport ma'lumotlari, kodlari, mansablari, maoshlari) saqlanadi;

1C:Buxgalteriya 8.0 da barcha buxgalteriya, soliq hisobotlari avtomatik tarzda tashkil topadi va



intellektga asoslangan ilg'or buxgalteriya vositasi. Mashinani o'rganishning murakkab algoritmlaridan foydalangan holda, Vic.ai kreditorlik qarzlariga alohida e'tibor qaratgan holda turli moliyaviy vazifalarni avtomatlashtiradi va soddalashtiradi. Platformaning aqlli tizimi hisobfakturalarni avtomatik tarzda qabul qilishi, tasniflashi va qayta ishlashi mumkin, bu esa ma'lumotlarni qo'lda kiritish zaruratini sezilarli darajada kamaytiradi va jarayondagi inson xatolarini deyarli yo'q qiladi. Vic.ai-ning asosiy xususiyatlari:

- To'liq avtomatlashtirish/AI yetkazib berish bilan yangi imkoniyatlarni kashf eting.
- Fayllar va ma'lumotlarni osonlik bilan birlashtiring.
- Tasdiqlash oqimlari uchun vaqt ni qisqartiring.
- Dunyo bo'y lab har qanday ERP tizimi bilan mos keladi.
- Yangi va to'g'ri tahlilni qo'lda bo'lgagan tasniflash orqali ko'rib chiqing.

Xulosa:

Xulosa qilishimiz mumkinki, buxgalteriya hisobni yuritishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlar hisob tizimining yanada natijali ishlashiga yordam berib kelmoqda. Shu jumladan, buxgalteriya hisobining zamonaviy avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlarini amaliyatga keng joriy qilinishi moliyaviy texnologiyalar kompaniyalarining ham moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellectning rivojlanishi va uning buxgalteriya hisobiga ta'siri yaqin keljakdagi buxgalter kasibini butunlay yo'q qiladimi?, -degan savol tug'dirishi mumkin. Lekin buxgalter kasibi yuzma-yuz kasb deb hisoblanadi. Buxgalter xizmatining mijozlari hozirgi davrda zamonaviy texnologiyalardan farqli ravishda odamlarga ko'proq ishonadilar, chunki sun'iy intellektlar bexostan zarar ko'rishi, yani virusga uchrashi, hakkerlar tomonidan buzib kirilishi mumkin. Buning natiyjasida ma'lumotlar o'g'irlanishi, yo'q qilinishi mumkin. Buxgalterlar esa odam sifatida ma'lumotlarni ma'lum qismini o'z miyyasida saqlashi, tajriba va bilimi asosida har qanday holatta ishlay oladi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobi sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ko'plab korxonalarda hali ham eskirgan va noqulay dasturlardan foydalanishmoqda. Zamonaviy buxgalteriya dasturlarini jo'riy etish orqali ish samaradorligini oshirish, xatolarni kamaytirish va vaqt ni tejashga erishish mumkin. Buning uchun davlat tomonidan moliyaviy va texnik yordam ko'rsatilishi, korxonaning yanada rivojlanishi va yuritmizga foydali tovar va xizmatlarini ishlab chiqishiga yo'l ochib beradi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, zamonaviy dasturlar bilan ishslash uchun malakali kadrlarni tayyorlash, IT sohasidagi mutaxasislarning zarurligi va

ular yordamida zamonaviy texnologoyalarni yanada takomillashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrdan 2169-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomalar".

2. Kenneth C.Loudon, Jone P.Loudon. Management Information Systems. New York, 2016.

3. Buxgalteriya hisobining axborot tizim lari: Qtuv qo'llanma / A.A.Karimov va boshqalar. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.- 192 b.

4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14510538> BUXGALTERIYA HISOBIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

5. Kichik biznes sub'ektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi/Darslik/Namangan: "Usmon Nosir media", 2022. - 116 b.

6. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1012>

7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – <https://stat.uz>